

CHET TILINI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Inomova Ro'zixon Iqboljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Sanakulov Zayniddin

Chirchiq davlat pedagogika universiteti nemis tili kafedrasi mudiri

Email: inomovarozihon@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish haqida so'z boradi. Xorijiy tilni o'qitishning zamonaviy metodik yondashuvi bo'lmish tilni kommunikativ o'rgatish xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *xorijiy til, innovatsiya, kommunikatsiya, metod, pedagogika, madaniyatlararo muloqot, kompetensiya*

Kirish. So'nggi yillarda yurtimizda chet tillarini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish jadal rivojlanib bormoqda. Innovatsiya – (inglizcha “innovation”) yangilik kiritish va tarqatish ma'nosini anglatadi. Taraqqiyot davri bo'lgan 21- asrda, ayniqsa, ko'p tillilik zamon talabiga aylanib bormoqda. Har bir sohaning rivojlanishida chet tillarining o'рни beqiyosdir. Madaniyatlararo samarali aloqalarni yo'lga qo'yishda chet tilining ahamiyati muhim hisoblanadi. Xususan, xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan shart-sharoitlar sezilarli darajada oshdi. Xorijiy tillarni samarali o'rgatish uchun tegishli metodikalardan, jumladan kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chet tillarini o'rgatish o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. Kompetensiyaviy yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamon jamiyati va ta'limining asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab o'qituvchi-pedagoglar faoliyatiga ham bevosita daxldordir. Albatta xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy kompetensiyaga asoslangan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. "Kompetensiya (lotincha “competo” so'zidan olingan bo'lib, “erishaman, muvofiqman, mos kelaman” ma'nolarini beradi) — kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmuasini anglatadi. Kompetensiya tushunchasi nisbatan yaqindan boshlab, 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarning boshlaridan keng qo'llanila boshlandi”⁷.

Asosiy qism

Demak, kompetensiya olingan bilim, ko'nikma va tajribalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ayniqsa chet tillarini o'qitishda juda muhimdir. “O'quvchilarning chet tilida o'zaro muloqotga kirishuv faolligini shakllantirish masalasi metodikada o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini shakllantirish, o'qitish jarayonini motivlashtirish, juft bo'lib ishlash, guruh bo'lib ishlash orqali o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni

⁷ <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/>

o'zlashtirishda o'quvchilarning o'quv hamkorligini tashkil qilish singari ko'plab metod va usullarda ishlab chiqilgani ma'lum.⁸ "Lekin bu boradagi uzoq yillik amaliy tajriba va eksperimentlar kutilgan natijaga olib kelmayotganligi, o'quvchilarning hali hamon xorijiy tilda og'zaki nutqi rivojlanmayotganligi ma'lum bo'lyapti. Grammatik qoidalar va lug'atni yodlashga asoslangan an'anaviy o'qitish usullari har doim ham tilni samarali o'zlashtirishni ta'minlay olmaydi. Shu munosabat bilan xorijiy tillarni o'qitishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv tobora ommalashib bormoqda"⁹. Bilamizki, xorijiy tilni o'qitish va o'rganishda to'rt ko'nikmaga (nemis tili misolida) schreiben, sprechen, lesen, hören (yozmoq, gapirmoq, o'qimoq, eshitmoq) tamoyiliga alohida e'tibor beriladi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Germaniyadagi Olmon-O'zbek ilmiy jamiyati raisi, O'zbekiston nemis tili o'qituvchilari assotsiatsiyasi raisi Xurram Rahimovni to'rt ko'nikma bo'yicha fikrlari tubdan farq qiladi. Prof. Xurram Rahimovning ta'kidlashi bo'yicha; "Xorijiy til o'rganuvchi yuqoridagi ko'nikmalarni o'rganishdan oldin quyidagi ikki ko'nikmani o'zlashtirishi lozim

1. denken (o'ylamoq)

2. übersetzen (tarjima qilmoq)

O'quvchi avval so'zni o'z ona tilida o'ylashi, so'ng uni chet tiliga tarjima qilishi maqsadga muvofiqdir". Xorijiy til o'rganuvchisi birinchi ko'nikma (denken) ni shakllantirish uchun keng qamrovli asarlarni o'qish – jumladan, turli janrlardagi kitoblar, maqolalar, xalq og'zaki ijodidan namunalarni mutolaa qilish foydalidir. Ikkinchi ko'nikma übersetzen (tarjima qilmoq) ni shakllantirish uchun xalq og'zaki ijodidan boyligi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun muntazam yozish amaliyoti xorijiy til o'rganuvchisiga so'z boyligi bilan tajriba o'tkazish va turli kontekstlarda so'zlardan foydalanishni yaxshiroq tushunish imkoniyatini beradi. Bu borada xalq ertaklariga murojaat eng to'g'ri yo'ldir. Xalq ertaklarining matni soddaligi, mazmunning tugalligi, tarjima uchun qulayligi ahamiyatlidir. O'z ona tilida so'z boyligi qancha ko'p bo'lsa, chet tilini o'rganish jarayonida xorijiy til o'rganuvchisi keyingi to'rt ko'nikmani tezroq o'zlashtiradi". Ushbu fikrni isboti sifatida mashhur nemis yozuvchisi Yoxann Volfgang Gyote aytganidek: Wer fremde Sprachen nicht kennt, weiß nichts von seiner eigenen. Ya'ni, kimki chet tillarini bilmasa, o'z tili haqida hech narsa bilmaydi. Demak chet tillarini o'rganish orqali o'z ona tilimizni yaxshiroq tushunishni boshlaymiz.

"O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda tanlangan adabiyotlar, ma'lumotlar - umuman o'rgatiladigan materiallar - shunday bo'lishi kerakki u o'zida ham leksik-grammatik va stilistik o'zgarishlarni o'z ichiga qamrab olishi bilan bir qatorda og'zaki va adabiy nutq tuzilmalarini ham aks ettirishi kerak.

Kommunikativ mahoratlarning barchasini birdaniga o'rgatib bo'lmaydi. Kommunikativ ta'lim mahoratlarini o'rgatish jarayonini bir nechta bosqichga bo'lamiz. Birinchi bosqichda

⁸ Sagdullayev Pulatbek Kayumjonovich "Chet tillarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati".

⁹ Urazbayeva.D. " International scientific and practical conference".

o'quvchilar shaxsiy yoki o'qituvchilarni kasbiy yo'naltirilgan faoliyatlarini dinamik o'zgaruvchan holatlarda maqsadga yo'naltirilgan kuzatuvlarini hamda idrok etishlarini tashkil qilish kerak. Ikkinchi bosqichning vazifasi o'quvchilar o'qituvchilari bilan birgalikda ishlab chiqqan o'quv-kommunikativ topshiriqlarni amalga oshirish jarayonida kasbiy yo'naltirilgan mashqlarni bajarishidir. Uchinchi bosqichda o'quvchilar tomonidan kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ faoliyatni mustaqil amalga oshirishni tashkil qilish"¹⁰. Ushbu bosqichlarni to'g'ri qo'llay olish chet tilini o'rganishning samaradorligini oshiradi, tilni kommunikativligini ta'minlaydi. "Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi"¹¹. Chunki xorijiy til o'rganish jarayonidagi har bir so'z chet el hayotini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. Chet tilida erkin muloqot qilish uchun to'rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarur.

Xulosa

"Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'quv samaradorligini oshirish, muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi"¹². Chet tillarini kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'yicha o'qitish tilning samaradorligini oshirish bilan birga madaniyatlararo muloqotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tillarni o'qitishda kompetensiyani zamonaviy metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali rivojlantirish mumkin. Masalan; ertaklar, qo'shiqlar, filmlar, podcastlar kabi materiallardan foydalanish chet tilining madaniyatini tushunishni undan tashqari muloqotni shakllantirishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima/>
2. Sagdullayev Pulatbek Kayumjonovich "Chet tillarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati".
3. Urazbayeva.D. " International scientific and practical conference".
4. Jumaniyozova N. Mavlonova Sh. ".Central Asian academic journal of scientific research"
5. Jo'raboyev. B. Sanaqulov. Z. ".Academic research in educational sciences"
6. Urazbayeva.D. " International scientific and practical conference".

¹⁰ Jumaniyozova N. Mavlonova Sh. ".Central Asian academic journal of scientific research"

¹¹ Jo'raboyev. B. Sanaqulov. Z. ".Academic research in educational sciences"

¹² Urazbayeva.D. " International scientific and practical conference".